

“Ochiq budget” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish dastlabki natijalari

Bugungi kunda fuqarolarning davlat budjeti mablag‘larining sarflanish jarayonida ishtirok etishi va mablag‘larni yo‘naltirishda o‘z fikrlarini bildirish imkoniyati yaratilganligi hech kimga sir emas.

Jumladan, joriy yilda Prezident tomonidan qabul qilingan qarorga asosan tasdiqlangan yangi tartib asosida **“Ochiq budget” axborot portali** orqali jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayonlari o‘tkazilib, ushbu jarayonlarda fuqarolar tomonidan **1,5 mingga yaqin** taklif kelib tushdi. Fuqarolarning to‘qson mingdan ortig‘i ushbu takliflarni qo‘llab-quvvatlagan holda ovoz berdi.

Jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar doirasida dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, vohamiz bo‘ylab jami **111 ta taklif** g‘olib deb topilib, ushbu tadbirlarni moliyalashtirish uchun **23,3 mlrd. so‘m** mablag‘ ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Shu bilan birga, mazkur jarayonlar ilk marotaba o‘tkazilayotganligi hamda joylarda aholini qiynab kelayotgan muammolarning to‘planib qolganligi sababli ushbu muammolarning yana birmuncha vaqt davomida yechimsiz qolishiga va fuqarolarning turmushiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishiga sabab bo‘layotganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **““Ochiq budget” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi Qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror joriy yilda o‘tkazilgan jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalaridan kelib chiqib, aholi tomonidan kelib tushgan o‘rinli va dolzarb takliflar asosida ishlab chiqildi.

Tasdiqlangan hujjatga ko‘ra, fuqarolar tomonidan kelib tushgan takliflarni moliyalashtirish uchun **“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”**da 1 mlrd. so‘mdan kam mablag‘ shakllangan **10 ta** tuman va shahar uchun qo‘shimcha **4,4 mlrd. so‘m**, “Ochiq budget” axborot portal orqali kelib tushgan takliflar soni 100 tadan oshgan **2 ta** tumanlarning har biriga qo‘shimcha **500 mln. so‘m**dan jami **1,0 mlrd. so‘m** – hammasi bo‘lib **5,4 mlrd. so‘m** mablag‘ respublika budjetidan ajratilishi belgilab qo‘yildi.

mln. so‘m

T/r	Hudud nomi	Ajratiladigan qo‘shimcha mablag‘ miqdori	shundan:	
			1 milliard so‘mdan kam mablag‘ shakllangan tuman va shaharlarga	kelib tushgan takliflar soni 100 tadan ortiq bo‘lgan tuman va shaharlarga
	Viloyat bo‘yicha jami	5 419	4 419	1 000
1.	Denov tumani	165	165	
2.	Boysun tumani	80	80	
3.	Sariosiyo tumani	457	457	

3.	Jarqo‘rg‘on tumani	290	290	
4.	Termiz shahri	500		500
5.	Muzrabod tumani	546	546	
6.	Bandixon tumani	608	608	
7.	Qiziriq tumani	601	601	
8.	Qumqo‘rg‘on tumani	698	698	
9.	Uzun tumani	1 205	705	500
10.	Sho‘rchi tumani	269	269	

Bu esa, o‘z navbatida, hududlarda aholini yillar davomida qiynab kelgan dolzarb muammolarning yechimini topish, joylarda infratuzilmani yaxshilash va eng asosiysi ushbu muammolarni hal etilishi fuqarolarning tashabbusi asosida amalga oshirilayotganligi quvonarli hol, albatta.

Bundan tashqari, joriy yilda fuqarolar tomonidan kelib tushgan takliflarning aksariyat qismi joylarda ichki yo‘llarni ta‘mirlash va rekonstruksiya qilish bilan bog‘liq tadbirlardan iborat ekanligi ham ushbu sohada yetarlicha muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Shu munosabat bilan, qabul qilingan qarorga ko‘ra, 2022-yildan boshlab tuman (shahar) budjetidan ichki yo‘llarni ta‘mirlash uchun ajratiladigan mablag‘larning **50 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarga yo‘naltirilishi** bo‘yicha yangi tartib joriy etilmoqda. Ushbu tartibga muvofiq, joylarda yo‘llarni ta‘mirlash uchun rejalashtirilgan mablag‘larning teng yarmi aynan fuqarolar tomonidan bildirilgan eng dolzarb deb topilgan muammoli yo‘llarni ta‘mirlash uchun yo‘naltiriladi.

Avval ham ma‘lum qilganimizdek, joriy yilda o‘tkazilgan ovoz berish jarayonlarida fuqarolarni yanada keng jalb qilish maqsadida mahallabay ishlar tashkil etilib, joylarda **“ovoz berish yarmarkalar”** tashkil etildi. Bu orqali fuqarolarga portaldan foydalanish amaliy yordam ko‘rsatilib, ularga mazkur jarayonlarning mazmun-mohiyati to‘g‘risida tushunchalar berilgan. Ushbu ishlarning davomi sifatida qarorga asosan endilikda har bir mahalla va ovulda **“Ochiq budjet” axborot portalida taklif qoldirish va ovoz berish jarayoniga ko‘maklashuvchi “mobil” guruhlar** hamda **“tashabbuskorlar burchagi”** tashkil etiladi.

Fuqarolik jamiyatining budjet jarayonlariga jalb qilish va budjet mablag‘larini sarflanishida ularni ishtirokini ta‘minlashda bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar hamda sinov tariqasida tanlab olingan Oltinsoy tumanida jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalarining tahlillari ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Jumladan, Moliya vazirligi va BMTning Taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida jalb qilingan xalqaro ekspertlar ko‘magida ishlab chiqilgan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, institutsional potensialni oshirish hamda tashabbusli budjet jarayonlarini ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash kabi masalalarni o‘zida aks ettirgan **“Yo‘l xaritasi”** tasdiqlandi.

Ulug‘bek Choriyev
Viloyat Moliya bosh boshqarmasi bosh mutaxassisi